

Date: 27<sup>th</sup> October-2025

## KONSEPT KOGNITIV TILSHUNOSLIK OBYEKTI SIFATIDA

Aminova Amira O'limas qizi

Nishon tumani 32-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola konseptga kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashgan holda tahlil etish haqidadir. Maqolada turli tillarda lingvokognitiv tomondan tahlil etilgan konseptlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Avvalo, jahon tilshunosligida bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar haqida so'z brogan bo'lib, so'ngra o'zbek tilshunosligidagi ilmiy-nazariy ishlar tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** kognitiv tilshunoslik (lingvokognitologiya), konsept, ПРОФЕССИЯ konsepti, "Ayol" konsepti, "xotira" konsepti, "o'g'ri" konsepti, "odam" va "jins" konseptlari.

**Аннотация.** Статья посвящена анализу концепта с точки зрения когнитивной лингвистики. В статье представлена информация о концептах, анализируемых с лингвокогнитивной точки зрения в разных языках. Сначала рассматриваются научные исследования, проводимые в этом направлении в мировой лингвистике, а затем анализируются научно-теоретические работы в узбекской лингвистике.

**Ключевые слова:** когнитивная лингвистика (лингвокогнитивология), концепт, концепт ПРОФЕССИЯ, концепт «женщина», концепт «память», концепт «вор», концепты «человек» и «гендер».

**Abstract.** This article is about the analysis of the concept from the point of view of cognitive linguistics. The article provides information about concepts analyzed from the linguocognitive side in different languages. First, the scientific research conducted in this area in world linguistics is discussed, and then the scientific and theoretical works in Uzbek linguistics are analyzed.

**Keywords:** cognitive linguistics (linguocognitology), concept, PROFESSION concept, "Woman" concept, "memory" concept, "thief" concept, "person" and "gender" concepts.

Konseptga kognitiv nuqtayi nazardan yondashib tahlil qilish turli tillar doirasida amalga oshirilgan. Konsept doirasida tadqiqotlarning ko'payishi bu – lingvokognitiv tilshunoslikning eng katta yutug'i, albatta. Boisi, millatning kognitiv dunyoqarashida muayyan lisoniy tushunchaning ilmiy, maishiy, ijtimoiy, siyosiy, psixologik, sotsiologik – umuman, butun bor bo'yicha tahlil ostiga olinishi ayni shu millat mentalitetini o'rganish va shunga muvofiq ravishda munosabatda bo'lishdek dolzarb masalaga sababchi bo'ladi<sup>21</sup>. Xususan, rus tilshunosligida bu borada amalga oshirilgan ishlarning sanog'iga yetish mushkul. Shu sababdan ham biz konseptlarning lingvokognitiv tomondan tahlilga tortilgan ilmiy izlanishlarni imkon darajasida keltirishga harakat qilamiz.

<sup>21</sup> Yandashova T. O'zbek tilida "go'zallik" konsepti. Til va adabiyot tadqiqotlari I (O'zbekiston Respublikasining Turkiy kengashga a'zo bo'lganiga bag'ishlanadi). – Karabuk, 2020. –B. 363

Date: 27<sup>th</sup> October-2025



A.A.Oganovoy tomonidan yozilgan dissertatsiya tilga semantik-kognitiv yondashuv asosida ispan va rus tilshunoslik ongida ПРОФЕССИЯ (kasb) konseptini o'rganishga bag'ishlangan. ПРОФЕССИЯ (kasb) konseptining ma'lumotlar bazasini ochib berishda lug'atlar, assotsiativ tajribalar, ispan va rus paremiyalari haqidagi ma'lumotlarga tayanilgan. ПРОФЕССИЯ va PROFESIÓN (ispancha) konseptlarini kognitiv tasniflash kasb egalarining individual xususiyatlari, ularning amalga oshirayotgan faoliyat turi va boshqa jihatlariga bog'liqligi, ularni aniqlab qiyosiy tahlil qilish lozimligi izlanuvchi tomonidan ta'kidlab o'tilgan<sup>22</sup>. Shuningdek, M.A. Isayeva ingliz tilidagi «СЕМЬЯ» (oil) konseptini linovokognitiv yo'nalishda tahlil qilgan bo'lsa<sup>23</sup>, COLD WAR (sovuq urush)<sup>24</sup>, "свобода"<sup>25</sup> kabi konseptlar ham kognitiv analiz obyektiga aylanib ulgurgan.

Viktoriya Lyamkina fransuz tilida "ayol" konseptini tahlil qilish jarayonida yozgan maqolasida konseptning mohiyatini kognitiv tilshunoslikning markaziy tushunchasi sifatida ko'rib chiqadi, kognitiv tilshunoslikning shakllanish jarayonida konseptni o'rganish yo'llarini belgilab beradi. U shunday yozadi: "Konsept periferiyasiga aloqador har bir belgi o'zida ijobiy yoki salbiy baholarni mujassamlashtiradi, bir qator belgilar esa "ayol"ning u yoki bu xususiyatini tavsiflashda ikki xil baholash imkoniga ega. Odatda, ular yadro belgilaridan farqli ravishda neytral hisoblanadi. "Ayol" konsepti fransuzlar olami manzarasini hamda fransuzlar lisoniy ongini aks ettiradi"<sup>26</sup>. Olimaning fikridan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, fransuz tilida "ayol" konsepti baho munosabatini ifodalash xususiyatiga ega. Ya'ni aksiologik baho "ayol" konsepti ifodalagan belgilar orqali yuzaga chiqadi.

O'zbek tilshunosligida ham "ayol" konseptini o'rganish, tadqiq etish yuzasidan bir necha ishlar amalga oshirilgan. Masalan, «Ayol» konseptini qiyosiy jihatdan o'rganish bilan bog'liq. Professor Shahriyor Safarovning «Kognitiv tilshunoslik» (2006) kitobida «Ayol» konsepti haqida juda yaxshi misollar berilgan va Ayolning bir nechta xususiyatlari sanab o'tilgan. G.Aliyeva va T.Eshboyeva fransuz tilida "ayol" konseptining kognitiv tahlilini ishlab chiqqan bo'lib, mazkur maqola orqali fransuz tilida «femme» (ayol) konseptining kognitiv tahlil qilish usullari borasida fikrlar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda fransuz tilshunoslik madaniy konsepsiyasini ko'rib chiqishga hamda konsepsiya tarkibini tashkil etuvchi uning yadro (asosiy) va periferik xususiyatlari yoritib berilgan. Mualliflar "Ayol" konseptining kognitiv mohiyati haqida shunday yozadi: «Ayol» kognitiv modeli shunday bir aqliy tuzilma bo'lib, u ikki guruh belgilarini o'z ichiga oladi: Birinchi guruh konseptual belgilar, asosan, ayolning biologik mavjudot sifatida tavsiflanishi bilan bog'liq (ayolning tashqi ko'rinishi bilan bog'liq bo'lgan konseptual belgilar; ayolning yoshi bilan;

<sup>22</sup> Оганова А. А. Концепт ПРОФЕССИЯ испанском и русском языковом сознании: Дисс. ... канд. филол. наук. Отзыв. – Пятигорск, 2015. – 11 с.

<sup>23</sup> Исаевой М. А. Языковые средства репрезентации концепта «СЕМЬЯ» в английском языке. – Белгород, 2016. – 58 с.

<sup>24</sup> <https://mgimo.ru/upload/diss/2019/kovalev-annotac.pdf>

<sup>25</sup> Ардашева Т. Г. Лингвокогнитивный анализ концепта "свобода": Дисс. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2012.

<sup>26</sup> Viktoriya Lyamkina. Le concept linguoculturologique "femme" dans la conscience de la langue française. Ўзбекистонда хорижий тиллар илмий методик электрон журнал// №1 2017.

Date: 27<sup>th</sup> October-2025

ayol nutqi bilan; ayolning psixologik xususiyatlari; uning aqliy qobiliyatlari, ma'lumot darajasi, ayol-onaning xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan belgilar),

Ikkinchisiga asosan ayolni ijtimoiy mavjudot sifatida tavsiflovchi konseptual belgilar kiradi (ayolning oiladagi roliga xos bo'lgan konseptual belgilar; ayolning o'rni; oiladan tashqaridagi ayol tavsifi bilan). Albatta, konseptual xususiyatlarni ikki guruhga bo'lish shartli, chunki ba'zi belgilar ham biologik, ham ijtimoiy ko'rinishga ega". Fransuz tilidagi ijobiy baho berilgan va salbiy baholashdagi iboralar, maqollar tahlil obyektiga aylantirilgan. Tadqiqotchilar xulosalar chiqarish jarayonida ham bu boradagi natijalarni shunday qayd etadi: "Biz bugungi kunda fransuz milliy-lingvistik-madaniy hamjamiyatida ayollarni nomlashda ishlatiladigan eng ko'p leksik birliklarni tanladik. O'zlarining semantikasidagi bu birliklar nafaqat ayolning tashqi yoki ichki fazilatlarining o'ziga xos xususiyatlarini, balki ijobiy yoki salbiy bahoni ham o'z ichiga oladi va «suhbatdosh» bilan tegishli munosabatlarni shakllantiradi"<sup>27</sup>. Ushbu konsept yuzasidan amalga oshirilgan katta amaliy ishlardan biri bu R.S.Ibragimovanning "Fransuz va o'zbek tillarida AYOL konseptining lingvokognitiv tadqiqi" dissertatsion ishidir. Unda "ayol" konseptining o'zbek va fransuz tillarida ifodalanish yo'llari tadqiq etilgan"<sup>28</sup>.

D.B.Agzamova o'zbek va ingliz tillaridagi badiiy matnlarda "xotira" konsepti qo'llangan metaforik birliklarning kognitiv tahlilini amalga oshirgan. Metaforaning kognitiv tahlili natijasida ingliz va o'zbek tillaridagi olamning lisoniy tasviri uchun umumiy xususiyat hisoblangan Xotira-Makon obrazini aniqlagan"<sup>29</sup>. "O'g'ri" konseptining ingliz, o'zbek va turk tillaridagi qiyosiy tahlilini lingvokognitiv aspektda o'rgangan Sh.Abdusalomova ushbu konseptning uch til doirasidagi o'xshash va farqli jihatlarini ochib berishga harakat qilgan"<sup>30</sup>.

O'zbek tilida "Odam" va "jins" konseptining kognitiv xususiyatlarini yoritish U.Yigitaliyev tadqiqotining obyekti hisoblanadi. Bu ishni amalga oshirishda u konseptual tahlil metodidan foydalangan, "odam" va "jins" konseptining kognitiv xususiyatlari misollar asosida dalillangan. "Konsept va konseptual tahlilning lingvokognitiv muammosi" deb nomlanuvchi ikkinchi faslda konsept va konseptual tahlil metodi bo'yicha tilshunoslikdagi mavjud qarashlar o'rganilib, munosabat bildirilgan. Dissertatsiyada, shuningdek, konseptning turlari, modellari; kognitiv tilshunoslikning o'rganish obyekti, vazifasi, yo'nalishlari bo'yicha ham xulosalar berilgan"<sup>31</sup>.

<sup>27</sup> Aliyeva G.T., Eshboyeva T.S. Fransuz tilida "ayol" konseptining kognitiv tahlili. Молодой ученый Международный научный журнал.//№ 30 (320) / 2020. 312-317 с.

<sup>28</sup> Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида аёл концептининг лингвокогнитив тадқиқи: филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012.

<sup>29</sup> Агзамова Д.Б. Инглиз ва ўзбек тилларидаги бадий матнларда "хотира" концепти қўлланган метафорик birlikларнинг когнитив таҳлили. "Ўзбекистонда хорижий тиллар" илмий-методик электрон журнал. №2(21)/2018. 133-139-б.

<sup>30</sup> Abdusalomova SH. "O'g'ri" konseptining ingliz, o'zbek va turk tillaridagi qiyosiy tahlili. Филология ва маданият масалалари илмий-услубий мақолалар тўплами//№ 2. – Карабук, 2020. –Б. 324-327

<sup>31</sup> Йигиталиев У. С. Ўзбек тилида «одам» ва «жинс» концептлари билан боғлиқ ассоциатив-вербал birlikлар. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (phd) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. –Б. 54



Date: 27<sup>th</sup> October-2025

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, konseptga kognitiv tilshunoslik obyekti sifatida qarab tahlil qilish jahon va o'zbek tilshunosligida yaratilgan ilmiy ishlarining salmoqli qismini egallaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Agzamova D.B. Ingliz va ўzbek tillaridaги бадий матнларда “хотира” концепти қўлланган метафорик бирликларнинг когнитив таҳлили. “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал. №2(21)//2018.
2. Abdusalomova SH. “O‘g‘ri” konseptining ingliz, o‘zbek va turk tillaridagi qiyosiy tahlili. Филология ва маданият масалалари илмий-услубий мақолалар тўплами//№ 2. – Карабук, 2020.
3. Aliyeva G.T., Eshboyeva T.S. Fransuz tilida “ayol” konseptining kognitiv tahlili. Молодой ученый Международный научный журнал.//№ 30 (320) / 2020. 312-317 с.
4. Ардашева Т. Г. Лингвокогнитивный анализ концепта "свобода": Дисс. ... канд. филол. наук. –Ижевск, 2012.
5. Viktoriya Lyamkina. Le concept linguoculturologique “femme” dans la conscience de la langue française. Ўзбекистонда хорижий тиллар илмий методик электрон журнал// №1 2017.
6. Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида аёл концептининг лингвокогнитив тадқиқи: филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012.
7. Исаевой М. А. Языковые средства репрезентации концепта «СЕМЬЯ» в английском языке. –Белгород, 2016.
8. Оганова А. А. Концепт ПРОФЕССИЯ испанском и русском языковом сознании: Дисс. ... канд. филол. наук. Отзыв. – Пятигорск, 2015.
9. Йигиталиев У. С. Ўзбек тилида «одам» ва «жинс» концептлари билан боғлиқ ассоциатив-вербал бирликлар. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (phd) дисс. автореф. – Тошкент, 2020.
10. Yandashova T. O‘zbek tilida “go‘zallik” konsepti. Til va adabiyot tadqiqotlari I (O‘zbekiston respublikasining Turkiy kengashga a‘zo bo‘lganiga bag‘ishlanadi). – Karabuk, 2020.

